

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ABDUSAMIYEVA DILROBO ABDUVAXOB QIZI**

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN  
SHAXSLAR RESOTSIALIZATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Abdusamiyeva Dilrobo Abdavaxob qizi**

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasini takomillashtirish .....3

**Abdusamiyeva Dilrobo Abdavaxob kizi**

Improvement of re-socialization of persons released from penal institutions.....23

**Абдусамиева Дилробо Абдувахоб кизи**

Совершенствование ресоциализации лиц, освобожденных из учреждений по исполнению наказания.....41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ .....47

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**ABDUSAMIYEVA DILROBO ABDUVAXOB QIZI**

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLAR  
RESOTSIALIZATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1469 raqam bilan ro'yxatga olingan.


Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.


<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Ermатов G'ayrat Oqmirzayevich</b> yuridik fanlar nomzodi, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Abzalova Xurshida Mirziyatovna</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Anorboyev Murodjon Raxmanqul o'g'li</b> yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar</b> vazirligi akademiyasi


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-iyun kuni soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 35. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1396-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 5-iyun kuni tarqatildi.  
(2025-yil 5-iyundagi 48-raqamli reestr bayonnomasi).

  
A.A. Otajonov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

  
I.B. Djurayev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

  
D.B. Bazarova  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc),  
professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, World Population Review tomonidan yuritiladigan statistik ma'lumotga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha jinoiy jazoni o'tab bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan qayta jinoyatchilik ko'rsatkichi o'rtacha 50 foizni tashkil etmoqda<sup>1</sup>. Bunga, penitensiar tizimning profilaktik funksiyasini amalga oshirishdagi kamchiliklar, mahkumlarga qo'llaniladigan axloqan tuzatish vositalarining yetarli darajada samarali emasligi, jazo va jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etishni mahkumlarni axloqan tuzatish va ularni qayta ijtimoiylashtirish bilan birgalikda olib borilmayotganligi, mahkumlar ozod etilgach ularning jamiyatga qayta moslashuv jarayonida vujudga keladigan qator muammolar sabab bo'lmoqda. Bu esa jazoni ijro etish bilan birga mahkumlarni tarbiyalash va ularni qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlarni qo'llashni kuchaytirish, ozod etilgach muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy-psixologik va boshqa turdagi ko'makka muhtoj bo'lgan sobiq mahkumlarga yordam berish orqali ularni jamiyatga qayta moslashuv jarayonini takomillashtirish masalasini taqozo qiladi.

Jahonda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasini samarali tashkil etish, sobiq mahkumlar oldida vujudga keladigan muammolarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarini o'rganish hamda mazkur muammolarni bartaraf etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar tomonidan sodir etiladigan qayta jinoyatchilikka sabab bo'luvchi omillarni qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan sobiq mahkumlar tomonidan jinoyat sodir etish ko'rsatkichi hamon yuqori bo'lib qolayotganligi muammosi bugungi kunda postpenitensiar tizimning nazariy, amaliy va huquqiy masalalarini kompleks tarzda o'rganish, tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularga yechim berish masalasini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasini samarali amalga oshirish uchun Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi huzurida Probatsiya xizmati tashkil etilib, xizmat faoliyatini tartibga solishga qaratilgan "Probatsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi hamda ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning tadbirkorlik, me'morchilik, hunarmandchilik kabi yo'nalishlardagi loyihalarini moliyalashtirish maqsadida bir martalik "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"ni berish tartibi o'rnatildi<sup>2</sup>. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

<sup>1</sup> World Population Review. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/recidivism-rates-by-country>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-299-sonli Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 07/22/299/0572-son.

strategiyasi<sup>1</sup>da mahkumlar va jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta‘minot va xalqaro e‘tirof etilgan boshqa huquqlarini ta‘minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko‘maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalalari mahkumlar va jazoni o‘tab chiqqan shaxslar resotsializatsiyasining asosiy vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar qayta ijtimoiylashuvini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni xalqaro andozalarga muvofiq ravishda qayta ko‘rib chiqish, sobiq mahkumlarni baholashning aniq mezonlarini yaratish, resotsializatsiya jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etishning samarador yo‘llarini ishlab chiqish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-938-son “Probatsiya to‘g‘risida”, 2014-yil 15-avgustdagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi VMQ-543-son “Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta‘minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi.** Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning postpenitensiar resotsializatsiyasi masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish masalalari mamlakatimizda tadqiq etilmagan. Biroq penitensiar tizimni takomillashtirishga qaratilgan ayrim tadqiqot ishlarida mazkur masalaga qisman to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, N.S. Salayev, D.A. Tadjibayeva, G‘.O.Ermatov, S.S.Niyozova, G.U.Axmedova, A.A.Saidov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son.

Jumladan, N.S.Salayev penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish orqali mahkumlar tomonidan kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan qayta jinoyatchilikning oldini olish masalalarini, D.A. Tadjibayeva mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish orqali ular tomonidan penitensiar muassasalarda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirish masalalarini, A.A. Saidov mahkumlar bilan muomalada bo'lishning xalqaro andozalarini tahlil etgan holda, ushbu andozalarga muvofiq O'zbekiston jinoyat-ijroiya siyosatini takomillashtirishga doir ayrim jihatlarni tadqiq etgan.

MDH davlatlari olimlari: Yu.V.Andreyeva, L.A.Latisheva, Z.Sh.Maxmudov, S.M.Oganesyan, I.I.Xvan, M.A.Shapar, M.S.Ribak, A.R.Abutalipov, Yu.M.Antonyan, A.Ya.Grishko, S.L.Babayan, Yu.B.Xarmayev, Ye.A.Toxova, Ye.A.Timofeyeva, B.N.Kazansev, M.Kuznetsov, A.V.Brilliantov, S.M.Zubarev, A.M.Morozov va boshqalarning tadqiqot ishlari jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasining u yoki bu jihatlarga bag'ishlangan.

Xorijiy davlatlarda B.D.Williams, M.Bobbitt, C.A.Visher, J.Graffam, A.Nilsson, A.Fox, A.J.Shinkfield, J.R.Scroggins, J.E.Cobbina, R.Walmsley, R.Matthews, S.A.Kinner, D.Plecas, E.S.Scott, P.Tolan va boshqalarning ishlarida postpenitensiar resotsializatsiya masalalari muhokama qilingan<sup>1</sup>.

Respublikamizda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasi jarayonini takomillashtirish bo'yicha kompleks monografik tadqiqot o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan hamda "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari", "Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini isloh qilish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasi bilan bog'liq munosabatlarni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan kompleks tadqiq etish orqali postpenitensiar tizimni takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

postpenitensiar resotsializatsiyaning mohiyatini tahlil qilish;

postpenitensiar resotsializatsiyaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyatini tahlil qilish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasida penitensiar tizimning o'rnini tahlil qilish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasida differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsiplarining ahamiyatini yoritish;

---

<sup>1</sup> Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida keltirilgan.

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar resotsializatsiyasi masalalarini tahlil etish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan shaxslar resotsializatsiyasi masalalarini yoritish;

sobiq mahkumlar ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda Probatsiya xizmati va hokimiyatlar qoshidagi reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish masalalarini tahlil qilish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini takomillashtirish masalalarini muhokama qilish;

ayrim xorijiy davlatlardagi mahkumlar resotsializatsiyasi masalalarini o'rganish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasini tashkil etish borasida vujudga keladigan ijtimoiy huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqot predmetini** jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili hamda intervyu kabilardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'lgan shaxslarni ozodlikka chiqarish orqali jamiyatda jinoyatchilik xavfi vujudga kelayotganligi sababli Jinoyat kodeksi 73-moddasi uchinchi qismining "v" bandidagi "shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa" degan so'zlarni chiqarib yuborish lozimligi asoslantirilgan;

ozod etilgach sobiq mahkumlarni moddiy jihatdan ta'minlash va tenglik prinsipiga rioya etish zarurati sababli ijtimoiy soliq to'langan davr ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblanishi kerakligi asoslantirilgan;

mahkumlarni axloqan tarbiyalash jarayonida ularning ruhiyati bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etishi sababli tuzalish yo'liga o'tmagan deb topilgan mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktika ishlari muassasa psixologini jalb etgan holda alohida reja asosida amalga oshirilishi kerakligi asoslantirilgan;

Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosatini kompleks ravishda amalga oshiruvchi davlat tuzilmasi bo'lganligi sababli huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalarini kiritish kerakligi asoslantirilgan;

Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga kiritilganligi sababli Yoshlar ishlari agentligi huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni,

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni (yoshlarni) ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etishi kerakligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Jinoyat-ijroiya kodeksi 99-moddasiga tegishli o'zgartirish kiritgan holda mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish ishlarida qarindoshlarning ishtirokini belgilash lozimligi asoslangan;

Jinoyat-ijroiya kodeksi 6-moddasiga tegishli o'zgartirish kiritgan holda, "jazo va jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etishni mahkumlarni axloqan tuzatish va ularni qayta ijtimoiylashtirish bilan birlashtirish prinsipi"ni kiritishni maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan shaxsni ozodlikdan mahrum qilinganligi munosabati bilan o'qishdan chetlatish tartibi maqsadga muvofiq emasligidan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom 36-bandining "j" kichik bandini chiqarib yuborish orqali o'qishdan chetlatish tartibini bekor qilish lozimligi asoslangan;

tumanlardagi har bir probatsiya bo'limlarida psixolog lavozimi uchun 1 ta shtat birligi ajratilishi lozimligi taklif etilib, bunda haftada bir marotaba nazorat ostidagilarning ruhiy holati hamda muammolaridan kelib chiqqan holda psixologik trening tashkil etilishi lozimligi asoslangan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish markazlarini Probatsiya xizmatlari qoshida qaytadan tashkil etish lozimligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, probatsiya xizmati xodimlari va 30 dan ortiq yurist-pedagog, ilmiy tadqiqotchilar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, 15 dan ortiq jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar bilan o'tkazilgan intervyular, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda foydalaniladi hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish va Jinoyat huquqi, Jinoyat-ijroiya huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishg xizmat qiladi, tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda

hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi va jinoyat ijroiya huquqi fanlarini o'qitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasini takomillashtirish mavzusini tadqiq etish bo'yicha olingan xulosalar natijalari asosida:

ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'lgan shaxslarni ozodlikka chiqarish orqali jamiyatda jinoyatchilik xavfi vujudga kelayotganligi sababli Jinoyat kodeksi 73-moddasi uchinchi qismining "v" bandidagi "shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa" degan so'zlarni chiqarish haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 7-avgustdagi "Probatsiya to'g'risida"gi O'RQ-938-son Qonunining 71-moddasi 3-bandi birinchi xatboshisini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-avgustdagi 3/08-141-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, unga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilmasligiga xizmat qilgan;

ozod etilgach sobiq mahkumlarni moddiy jihatdan ta'minlash va tenglik prinsipiga rioya etish zarurati sababli ijtimoiy soliq to'langan davr ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblanishi kerakligi haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-817-son Qonunning 2-moddasi 7-bandi (Jinoyat-ijroiya kodeksining 96-moddasiga kiritilgan qo'shimcha: ikkinchi qism)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-avgustdagi 3/08-141-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi mahkumlarning ijtimoiy soliq to'lagan davri ularning umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblanishiga xizmat qilgan;

mahkumlarni axloqan tarbiyalash jarayonida ularning ruhiyati bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etishi sababli tuzalish yo'liga o'tmagan deb topilgan mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktika ishlari muassasa psixologini jalb etgan holda alohida reja asosida amalga oshirilishi kerakligi haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-817-son Qonunning 2-moddasi 8-bandi (Jinoyat-ijroiya kodeksining 97<sup>1</sup>-moddasi uchinchi qismi)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-avgustdagi 3/08-141-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi tuzalish yo'liga o'tmagan deb topilgan ahkumlar

bilan tarbiyaviy-profilaktika ishlari muassasa psixologini jalb etgan holda amalga oshirilishiga xizmat qilgan;

Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosatini kompleks ravishda amalga oshiruvchi davlat tuzilmasi bo'lganligi sababli huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalarini kiritish kerakligi haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 25-yanvardagi "Yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-747-son Qonunning 2-moddasi 1-bandi ("Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi birinchi qismiga kiritilgan qo'shimcha: o'n beshinchi xatboshi)ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-avgustdagi 3/08-141-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalarining kiritilishiga xizmat qilgan;

Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga kiritilganligi sababli Yoshlar ishlari agentligi huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni (yoshlarni) ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etishi kerakligi haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 25-yanvardagi "Yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-747-son Qonunning 2-moddasi 2-bandi ("Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 19<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshi)ni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 13-avgustdagi 3/08-141-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi Yoshlar ishlari agentligining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi vakolatini belgilashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (shundan 3 ta maqola xorijiy jurnalda) va to'plamlar tarkibida 6 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 9 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqot etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Postpenitensiar resotsializatsiyaning umumiy tavsifi va uning ijtimoiy zarurati”** deb nomlangan bo'lib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf *“Postpenitensiar resotsializatsiyaning mohiyati”*ga bag'ishlangan bo'lib, unda “postpenitensiar tizim”, “postpenitensiar huquq” “resotsializatsiya” tushunchalarining mohiyati tahlil etilgan. Muallif postpenitensiar resotsializatsiya tushunchasini ikki tarkibiy qismlarga bo'lib, dastlab, postpenitensiar tizim tushunchasining mazmun-mohiyatini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilgan hamda O'zbekistonda mazkur tizimning nazariy asoslari va ilmiy ta'rifi ishlab chiqilmaganligidan kelib chiqqan holda “postpenitensiar tizim” tushunchasiga o'zining ilmiy-nazariy ta'rifini taklif etgan. Shuningdek, postpenitensiar tizimda vujudga keladigan munosabatlar alohida huquq sohasi sifatida shakllanishi uchun barcha obyektiv shart-sharoitlar mavjud ekanligini joriy amaliyot va huquq nazariyasi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda quyidagicha asoslab bergan:

birinchidan, mazkur sohada vujudga keladigan munosabatlar hech bir huquq sohasi bilan to'liq qamrab olinmagan, jinoyat-ijroiya huquqi sohasi, asosan, penitensiar tizim bilan cheklangan va amaldagi jinoyat-ijroiya kodeksi normalari mahkumlar ozod etilganidan keyingi munosabatlarni tartibga solmaydi.

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xosligi, hajmi va murakkabligi alohida huquq sohasining shakllanishiga asos bo'luvchi omil hisoblanadi. Quyidagi statistik ma'lumotlar sohaning hajmi va murakkabligini ko'rsatib bera oladi. 2023-yilda jami 73797 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rib tamomlangan bo'lib, shundan 17396 nafar shaxsga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilgan<sup>1</sup>. 16810 nafar shaxs esa turli asoslarga ko'ra jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan<sup>2</sup>. Demak, davlat va jamiyat oldida bir yil davomida o'rtacha 16810 nafar shaxsni qayta ijtimoiylashtirish masalasi turibdi. Bundan tashqari, ozod etilgan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish ko'rsatkichi ham yuqori hisoblanadi va mazkur munosabatlar o'ziga xos bo'lib, hech bir huquq sohasi bilan to'la tartibga solishning imkoni mavjud emas.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan 2024-yil 12-martda berilgan 07/14-3385-141-sonli xat.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Maxsus hisob boshqarmasi tomonidan 2023-yil 28-oktyabrda berilgan 28/10-10-6134-sonli xat.

uchinchidan, A.Y.Grishko, Y.V.Andreyeva kabi ko‘plab xorijiy olimlar ham postpenitensiar tizimda vujudga keladigan munosabatlarni alohida huquq sohasi sifatida etirof etish zaruratini o‘z tadqiqotlarida asoslab berganlar.

Mazkur omillarni inobatga olgan holda, postpenitensiar huquq sohasini jinoyat-ijroiya huquqi sohasi tarkibidagi huquq sohasi (tarmoqchasi) sifatida e’tirof etish lozimligi haqida xulosaga kelgan hamda “postpenitensiar huquq” tushunchasiga mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan.

Muallif Y.M.Antonyan, M.A.Shapar, M.S.Ribak kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarida, turli davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlarida resotsializatsiya tushunchasiga berilgan ta’riflarni batafsil tahlil etgan holda uning mazmun mohiyatini yoritib bergan va bu bo‘yicha o‘zining shaxsiy pozitsiyasini ifoda etib “resotsializatsiya” tushunchasiga mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan. Shu o‘rinda mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirish jarayoniga nisbatan qo‘llaniladigan bir nechta tushunchalar: rehabilitatsiya, reintegratsiya, adaptatsiya tushunchalarini tahlil etib, mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish chora-tadbirlarini qamrab oluvchi jarayonga nisbatan aynan resotsializatsiya tushunchasining qo‘llanilishi maqbul ekanligi, rehabilitatsiya, adaptatsiya va reintegratsiya tushunchalari esa turli-xil ma’nolarni anglatib resotsializatsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanishi haqida xulosaga kelgan.

Muallif ushbu bobning *“Postpenitensiar resotsializatsiyaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyati”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida, sobiq mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarining ular tomonidan kelgusida sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni oldini olishdagi ahamiyatini yoritib bergan. Tadqiqotchining qayd etishicha, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning muvaffaqiyatsiz resotsializatsiyasiga ular ozodlikka chiqqach duch keladigan bir qator muammolar sabab bo‘ladi. Tadqiqotchi mazkur muammolar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: ish topish muammosi, uy-joy muammosi, ozodlikdan mahrum qilinishi natijasida oila a’zolari bilan munosabatning buzilishi, sog‘liqdagi muammolar, jamiyat a’zolari tomonidan stigma va diskriminatsiyaga uchrash hamda davlat tomonidan mazkur toifadagi shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish ishlarini tashkil etishning huquqiy asosi va mexanizimi yetarlicha ishlab chiqilmaganligi kabilarni sanab o‘tgan hamda mazkur muammolarga birma-bir to‘xtalib o‘tgan holda ularni bartaraf etish bo‘yicha turli yechimlarni taklif etgan. Jumladan, sobiq mahkumlarni joylashtirish uchun ayrim uy-joy turlarini taklif etgan, ya’ni ijaraga beriladigan uy-joy (qisman davlat mablag‘i hisobidan to‘lanadi), oila a’zolari yoki do‘stlari bilan yashash, davlat yoki imtiyozli uy-joylar, qayta ijtimoiylashtirish markazlari. Sobiq mahkumlarni mazkur turdagi turar-joylar bilan vaqtinchalik ta’minlash ularning jamiyatga qayta moslashish va moddiy jihatdan holatini yaxshilab olishga imkon berishini asoslab bergan.

*“Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasida penitensiar tizimning o‘rni”* deb nomlangan uchinchi paragrafda, tadqiqotchi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirishda penitensiar tizimda amalga oshiriladigan mahkumlarning resotsializatsiyasiga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyatini muhokama qilgan va penitensiar tizimda

mahkumlar qayta ijtimoiylashuvini samarali tashkil etmay, penitensiar va postpenitensiar tizimlarning o‘zaro aloqadorlikda faoliyatini yo‘lga qo‘ymay turib postpenitensiar tizimda qo‘llaniladigan chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonsiz ekanligi haqida xulosaga kelgan. Shundan kelib chiqqan holda, dastlab, jinoyat-ijroiya huquqining mahkumlar resotsializatsiyasini nazarda tutuvchi prinsiplarini tahlil etgan va turli nazariy qarashlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tahlil etgan holda Jinoyat-ijroiya kodeksiga “jazo va jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etishni mahkumlarni axloqan tuzatish va ularni qayta ijtimoiylashtirish bilan birlashtirish” prinsipini kiritishni taklif etgan. Jazo va jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etishni mahkumlarni axloqan tuzatish va ularni qayta ijtimoiylashtirish bilan birlashtirish prinsipining ifodasi sifatida Jinoyat-ijroiya kodeksining ayrim normalariga o‘zgartirish-qo‘shimchalar kiritish haqida takliflar ilgari surilgan. Takliflar mahkumlar resotsializatsiyasida oila a’zolarining qo‘llab-quvvatlovining ahamiyati, mahkumlar qarindoshlarini jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar bilan o‘tkaziladigan qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan jarayonlarga jalb qilishning samaradorligi, muassasa psixologlari tomonidan turli treninglarning muntazam ravishda o‘tkazilishi zarurati va boshqalar haqida kelingan xulosalar asosida shakllantirilgan. Shuningdek, mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish aniq ishlab chiqilgan dasturlar asosida amalga oshirilishi lozimligidan kelib chiqib, mazkur dasturlarni quyidagi toifalarga ajratadi:

jazoni ijro etish muassasalaridagi ijtimoiy moslashtirish dasturlari;  
ozodlikdan keyingi resotsializatsiya dasturlari.

Muallif ozodlikdan keyingi resotsializatsiya dasturlari ishlab chiqilayotgan vaqtda jazoni ijro etish muassasalarida qo‘llanilgan ijtimoiy moslashtirish dasturlari o‘rganib chiqilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni ozodlikka tayyorlash lozim darajada amalga oshirilmayotganligi sababli ozodlikka chiqqan shaxslar turli xil qiyinchiliklarga duch kelayotganliklari sababli mahkumlarni ozodlikka tayyorlash jarayonida ularda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish lozimligini asoslab beradi: mahkumlarga ish qidirish, intervyu(suhbat) ko‘nikmalarini rivojlantirish, intervyuda kutilgan masalalarni muhokama qilish, ish qidirish jarayoni bilan bog‘liq ishlarni boshqarish, mehnat bozori ma’lumotlarini taqdim etish, rezyume va arizalarni tayyorlash, bandlik agentliklari bilan aloqalar qilishga yordam beradigan xizmatlar bilan tanishtirish. Mazkur chora-tadbirlar bilan bir vaqtda yaqin qarindoshlar bilan uchrashuvlar sonini ko‘paytirish orqali ularning o‘zaro munosabatini yaxshilashga imkon berish lozimligini ta’kidlab, ushbu chora-tadbirlar qayta ijtimoiylashuv jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qilishini asoslab bergan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Postpenitensiar resotsializatsiyada differentsiatsiya va individuallashtirish masalalari”** deb nomlangan bo‘lib, uch paragrafdan iborat. Tadqiqot ishining *“Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar resotsializatsiyasida differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsiplarining ahamiyati”* deb nomlangan birinchi paragrafida, differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsipining mazmun-mohiyati, mazkur prinsipning sobiq mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonidagi

ahamiyati, prinsip turli normativ-huquqiy hujjatlarda turlicha ifoda etilishi va bu uning turlicha tushunishga olib kelayotganligi hamda Jinoyat-ijroiya kodeksida differenziatsiya tushunchasi o‘rniga tabaqalashtirish so‘zi qo‘llanilib, bu tushuncha ham normani turlicha tushunishga sabab bo‘layotganligi asoslab berilgan.

Muallif tadqiqot ishi natijasida differenziatsiya va individuallashtirishga rioya etish prinsipiga amal qilish mahkumlarni axloqan tuzatish ishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida juda muhim ahamiyatga ega ekanligini va bu prinsipni postpenitensiar tizimda ham qo‘llash lozimligini asoslab bergan va sobiq mahkumlarga qayta ijtimoiylashtirish chora-tadbirlari qo‘llashdan oldin ularni “axloqan tuzalish yo‘liga o‘tgan”, “axloqan tuzalish yo‘liga o‘tayotgan”, “axloqan tuzalish yo‘liga o‘tmagan” tarzida tasniflash lozimligini turli ilmiy materiallarni tahlil qilgan holda asoslab bergan. Bundan tashqari, mazkur prinsipning turli normativ-huquqiy hujjatlarda turlicha ifoda etilishi uni tushunishda va qo‘llashda turlicha yondashuvlarni keltirib chiqarayotganligini quyidagicha asoslaydi: Jinoyat-ijroiya kodeksida mazkur prinsip jazoni ijro etishda tabaqalashtirishga va yakka tartibda yondashishga rioya etish, “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi Qonunda belgilanadigan cheklovlarning differensiallashganligi va individuallashtirilganligi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda ta‘sir ko‘rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish, “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonunda tabaqalashtirish va individual yondashish tarzida ifodalangan.

Ko‘rinib turganidek, bir prinsip turli normativ-huquqiy hujjatlarda turlicha ifoda etilmoqda va ayrimlarida qo‘llanilgan so‘z g‘aliz bo‘lib, prinsipning asl mazmuniga bevosita mos kelmaydi. Masalan, differenziatsiya qismi tabaqalashtirish, differensiallashganlik, farqlash kabi so‘zlar bilan ifodalangan. Differenziatsiya so‘zi o‘zbek tili lug‘atida mavjud bo‘lib, bir butun narsaning turli xil qismlarga, shakllarga, bosqichlarga ajralishi, bo‘linishi, tabaqalanishi; butunning qismlarini o‘zaro farqlash, ajratish, tabaqalash ma‘nolarini anglatadi. Demak, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan, u yerdan ozod etilgan, ma‘muriy nazorat qo‘llanilgan va boshqa shaxslarga nisbatan ularni axloqan tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llashdan oldin ular turli me‘zonlar asosida farqlab olingan holda guruhlarga ajratiladi. Ya‘ni ushbu tushunchaga berilgan ta‘rifda farqlash, tabaqalash so‘zlari qo‘llanilmoqda. Lekin bu so‘zlar faqatgina differenziatsiya so‘zining mazmunini ochib berish uchungina qo‘llanilgan bo‘lib, ularni yakka holda qo‘llash prinsipning asl mazmunini ochib bermaydi. Masalan, tabaqalashtirish so‘zidan xalqni muayyan ijtimoiy qatlamlarga bo‘lishda foydalaniladi, farqlash so‘zi esa yakka o‘zi qo‘llanilganida juda ham yopiq bo‘lib, muayyan ma‘noni ochib bera olmaydi. Shuning uchun prinsipning mazmunini ochib beradigan yagona bir tushunchani topish va barcha normativ-huquqiy hujjatlarda bir-xil qo‘llanilishini ta‘minlash lozim.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar qonunchiligida mazkur so‘z differenziatsiya ko‘rinishida ishlatilgan bo‘lsa, Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalarida “Classification” tarzida ifoda etilgan. Classification o‘zbek tilida tasniflash so‘ziga to‘g‘ri keladi va axloqan tuzatish vositalari

qo‘llanilayotgan shaxslar ham turli me‘zonlar asosida aynan tasniflanadi. Individuallashtirish esa, yakka tartibda yondashish, individuallashtirilganlik, individual yondashish tarzida ifodalanib, mazkur tushunchalar ichida yakka tartibda yondashish so‘z bo‘lishi bilan birgalikda, nazarda tutilayotgan ma‘noni ham ochib bera oladi.

Shuningdek, tadqiqotchi differentsiatsiya prinsipidan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirishda ularni ayollar, erkaklar, voyaga yetmaganlar, giyohvandlik va alkogolizmga chalinganlar va ma‘muriy nazoratga olinganlar toifasiga ajratish va mazkur toifalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qayta ijtimoiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish haqidagi qarashlarini ifoda etgan. Ushbu guruh tarkibiga kiruvchi voyaga yetmaganlar va ayollar qayta ijtimoiylashuvining o‘ziga xos jihatlari batafsil muhokama etgan.

Ikkinchi paragraf *“Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar resotsializatsiyasi masalalari”* deb nomlangan bo‘lib, unda ayollar postpenitensiar resotsializatsiyasini amalga oshirishda ularning psixofiziologik xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyi va moddiy ehtiyojlari inobatga olinishi lozimligi, ayollarni qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan dasturlar erkaklarnikidan alohida ishlab chiqilishi zarurati va ozod etilgach ayollar duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar tahlil etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahkuma ayollar bilan muomala qilish va jinoyatchi ayollarga nisbatan qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan choralarni qo‘llash qoidalari (Bangkok qoidalari) va joriy amaliyotni tahlil qilgan holda ayollarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jazolarni imkon qadar kamroq qo‘llash zaruratini asoslab bergan. Shuningdek, turli xorijiy mamlakatlarda ayollarni qayta ijtimoiylashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan klublar va ularning faoliyatini tahlil etgan holda mamlakatimizda ham shu toifadagi klub va markazlarni tashkil etish orqali ayollarning kasbiy mahoratini oshirish va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini asoslab bergan.

*“Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan shaxslar resotsializatsiyasi masalalari”* deb nomlangan uchinchi paragrafda, muallif voyaga yetmagan shaxslar resotsializatsiyasi masalasini yoritarkan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning minimal standart qoidalari va boshqa xalqaro hujjatlarga muvofiq, avvalo, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni imkon qadar kamaytirish va ular ular ozodlikdan mahrum etilgan taqdirda jazoni ijro etish vaqtida davlat ularning ta‘lim olish va kasbiy tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlashi lozimligini asoslantirib beradi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Postpenitensiar resotsializatsiyani amalga oshiruvchi organ va muassasalar faoliyatini takomillashtirish masalalari”** deb nomlanib, mazkur bobning birinchi paragrafi *“Sobiq mahkumlar ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishda Probatsiya xizmati va hokimiyatlar qoshidagi rehabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish”* deb nomlangan bo‘lib, unda postpenitensiar resotsializatsiyani amalga oshiruvchi tuzilmalar: probatsiya xizmati, hokimiyatlar qoshidagi rehabilitatsiya markazlari faoliyati jarayoni tahlil etilgan va

mazkur tuzilmalarning sobiq mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonini samarali tashkil etish va amalga oshirish faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi masalalar keng tahlil etilgan holda bayon etilib, ularni barataraf etishga qaratilgan bir nechta takliflar ilgari surilgan.

Muallif, dastlab, Probatsiya xizmatining tashkil etilishi tarixini qisman yoritgan holda uning asl mazmun-mohiyatini tahlil etgan va shundan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi Probatsiya xizmati faoliyatini tadqiq qilgan hamda uning samarali amalga oshirilishiga to‘siq bo‘luvchi ayrim omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha muayyan takliflarni ishlab chiqqan. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, uning takomillashtirilishi lozim bo‘lgan ayrim normalari mavjud ekanligini izohlagan, ya’ni Qonunda probatsiya tushunchasiga berilgan ta’rif mukammal emasligini, unda probatsiyaning asl mazmuni hisoblangan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish funksiyasi ifoda etilmaganligini turli ilmiy tadqiqot ishlarini hamda xorijiy davlatlar qonunchiligida “probatsiya” tushunchasiga berilgan ta’riflarni o‘rganib chiqib, probatsiyaning mazkur belgisi uning ta’rifida ifoda etilishi zarurligi asoslab berilgan va quyidagicha mualliflik ta’rifini taklif etgan: “Probatsiya deganda, tegishli vakolatli subyektlarning ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etishga, shartli hukm qilingan va jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirishga, shuningdek nazorat ostidagi shaxslarga ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tarbiyaviy, tibbiy-psixologik jihatdan yordam berish orqali qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi”.

Bundan tashqari, 2024-yil 1-yanvar holatiga probatsiya bo‘linmalari hisobida nazorat ostida jami 83 763 nafar shaxs mavjud bo‘lib, 2024-yilning dastlabki 9 oyi mobaynida Probatsiya nazoratida turgan shaxslar tomonidan 701 ta jinoyat sodir etilgan. Nazorat ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ko‘rsatkichi yuqori ekanligidan kelib chiqqan holda, mazkur jinoyatlarga sabab bo‘layotgan omillar tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida probatsiya xizmatida shtatlarning kamligi masalalasi probatsiya xodimlarining o‘z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada amalga oshirishlariga to‘sqinlik qilayotganligi aniqlandi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq bir nafar xodimga shaharlarda – 100, tumanlarda – 75 nafar mahkum birlashtirilishi mumkin bo‘lgani holda, 2024-yil 26-iyun holatida Yunusobod tuman Probatsiya bo‘limi hisobida 966 nafar shaxs turganligini ko‘rishimiz mumkin, bu raqm har bir inspektorga deyarli 200 nafardan shaxs to‘g‘ri kelayotganligini bildiradi, mazkur holat probatsiya xodimlari tomonidan nafaqat nazorat ostidagi shaxslarni qayta ijtimoiylashtirishni amalga oshirish vazifasi, balki jazoning ijrosini ham yetarlicha amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilayotganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Probatsiya xizmatida psixolog lavozimi uchun jami bo‘lib 15 ta shtat ajratilgani, ulardan 1 ta shtat markaziy apparatda, qolgan 14 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi probatsiya boshqarmalariga tegishli bo‘lib, ularning har biriga 1 tadan psixolog to‘g‘ri kelayotganligi aniqlandi. 2024-yil 1-yanvar holatida probatsiya nazoratida 83763

